

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI TARBIYACHILARINING  
IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDOGOGIK IMKONIYATLARI**

***Abidova Nilifar Zakirovna***

*PhD rahbar: Alfraganus university*

*nodavlat oliy ta'lif tashkiloti datsenti,*

***Tozagul Saipova Risboy qizi***

*Alfraganus university nodavlat oliy ta'lif tashkiloti*

*"Ijtimoiy fanlar" fakulteti magistranti*

### **Annotation**

Ushbu maqolada tarbiyachilarning ijtimoiy kampetentsiya tushunchasi va maktabgacha ta'lif va tarbiya sohasiga oid meyoriy-huquqiy hujjalarga alohida to'xtalib o'tilgan. Tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi jarayonlarni bilish haqida malumotlar. Hamda pedagog tarbiyachini ijtimoiy-pedagogik kompetentligi rivojlanganligining mezonlari va ko'rsatkichlaridan, Motivasion shaxsiy, Kasbiy-kognitiv, Analitik-faoliyatlar haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** "Kompetentlik" tushunchasi, ijtimoiy kompetensiyalar, pedagogik halqa, tarbiyachini ijtimoiy-pedagogik kompetentligi, Motivasion shaxsiy, Kasbiy-kognitiv, Analitik-faoliyatli

### **Kirish**

O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlashi uchun ham jismoniy va ma'naviy sog'iom, intellektual salohiyatlari bo'lishi talab etiladi. Bu talab maktabgacha ta'lif va tarbiya tashkilotlarida voyaga yetayotgan yosh avlodning ta'lifi va tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni oshirishni taqozo etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lif muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lif-tarbiya jarayoniga zamnaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish boyicha muhim ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida asosiy o'rinni egallagan kuchli raqobat bardosh har bir mutaxassis kasbiy kompetentlikka ega bo'lislari hamda ijrimoyleshuv jarayonida ijtimoy kompitentlikni izchil rivojlantirib borishlari lozim. Maqolada kompetentlik, Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachisining ijtimoiy kompetentlikning namoyon bo'lishi, pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarurligi haqida so'z yuritiladi.

Hozirgi zamон tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan birи o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliliги o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati o'qituvchi - tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan birи shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan birи bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sev shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – "Ilq qadam" Davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida aks ettirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyilidir. Ushbu pedagogik konsepsiyanı yozishdan oldin men o'tgan davr mobaynida, o'zimning hamkasblarimning ish faoliyatini kuzatuvim hamda turli o'quv seminarlaridagi kuzatuvlarim asosida yozishga qaror qildim. Pedagogik konsepsiya eng avvalo o'zimning Pedagogik kompetensiyamni oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda ushbu Konsepsiya orqali men tashkilotim va shahrimdagи tarbiyachilarining o'zlarini ustida ishlari uchun ozgina bo'lsa ham turtki, shu bilan birgalikda yo'l ko'rsatuvchi ish bo'ladi deb o'yladim. Ushbu konsepsiyanı yozish vaqtida, konsepsiadagi ko'rsatma va yo'nalishlarni hayotga to'liq tadbiq etishim uchun men doimiy o'z ustimda ishslashim kerakligi hamda kamida 2 yil davomida ta'lim-tarbiya jarayonimga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishim lozimligini tushundim. Aytib o'tish lozimki, bolalarga ularning individual ritmda rivojlanishlari va individual potensialini hamda qiziqishni oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta'minlash uchun tarbiyachi shaxsi muayyan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachi rivojlanayotgan yosh avlodni mamlakatimizga munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek sharafla va mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondashishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi.

Psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga kirib kelgan. Psixologik jihatdan qaraganda kompetentlik "har qanday noan'anaviy vaziyatlarda va kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini tuta bilishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Tarbiyachi ijtimoiy kompetentlikni rivojlanirish natijasida ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikmasini, pedagogik malakaga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish kabi ko'nikmalarni hosil qiladi. O'z

faoliyatini endigina boshlayotgan tarbiyachilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali tarbiyachilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda tarbiyachining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to'g'ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- xilma-xil pedagogik jarayonlarda o'zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli ta'sodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar yuzasidan tarbiyachilarining fikrlarini o'rganish;
- o'z-o'zini boshqarishning turli shakllaridan unumli foydalanish;
- har bir tarbiyalanuvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;
- tarbiyalanuvchining ijtimoiy kelib chikishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Pedagogik kompetensiyalar bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni ham o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachilik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarining kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi. Kasbiy mahoratning bir qismi sifatida tarbiyachining loyiha madaniyati ham katta o'rin tutadi.

Tarbiyachilar tomonidan loyihalarni ishlab chiqish uchun mavzular, mini-loyihalar faoliyatning ijodiy yo'nalishiga qarab mustaqil ravishda tanlanadi. Faoliyatning yakuniy bosqichida taqdimot o'tkaziladi. Tarbiyachilarining malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishslashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so‘nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o‘rganishga yo‘naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o‘z pozitsiyalarini dalil qilish ko‘nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to‘g‘riligini o‘rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadilgan butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo‘la oladi

Pedagog tarbiyachini ijtimoiy-pedagogik kompetentligi rivojlanganligining mezonlari va ko‘rsatkichlari:

#### Motivasion shaxsiy

- tarbiyachi tarbiyalanuvchiga qadriyatli munosabat (bolalarga mehr-muhabbat, korreksion-pedagogik ta’sirning ijobiy natijasiga ishonch);
- tarbiyachilarning ijtimoiy yo‘nalgan faoliyatiga ijobiy motivasiya;
- ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni ongli aktuallashtirishga ehtiyoj;
- boshqa insonlarga ta’sir etish va ishontirish hamda tushuntirish yo‘li bilan o‘z maqsadiga erishish qobiliyati;
- shaxsning tizimli o‘zini-o‘zi rivojlantirishi zaruratini anglash;
- imkoniyati cheklangan bolalarga munosabatda bag‘rikenglik va empatiya

#### Kasbiy-kognitiv

- tarbiyachining ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyati nazariyasining asosiy qoidalarini bilish;
- tarbiyachining ijtimoiy kasbiy vazifalarini hal etish algoritmini bilish;
- turli yo‘nalishdagi maxsus tashkilotlarda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlarining xususiyatlari, shakllari va asosiy yo‘nalishlarini bilish;
- rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini va ular bilan ishlash metodlarini bilish;
- turli ijtimoiy guruhlar;
- bolalarning turli ijtimoiy guruhlardagi xulq-atvorlari xususiyatlarini bilish;
- ijtimoiy-pedagogik vazifalarni echishning metodikasi va texnologiyasini egallaganlik;
- turli yo‘nalishdagi maxsus tashkilotlarda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlari metodikasini egallaganlik;
- o‘z ishini rejalashtirish va faoliyatda ijtimoiy yo‘nalgan vazifalarni qo‘yishni bilish;

#### Analitik-faoliyatli

- ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilishni bilish;
- o‘z-o‘zining diagnostikasi, mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashni bilish;

- o‘z faoliyati natijalarini ongli nazorat qilishni bilish;
- faoliyat va munosabatlar natijalarini oldindan ko‘ra olish va prognozlash qobiliyati;
- o‘z zimmasiga nostandart echimlarni qabul qilish mas’uliyatini olish qobiliyati.
- korreksion-pedagogik faoliyat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni bajarish;
- o‘z kasbiy faoliyati refleksiyasi malakalarini egallaganlik

### **Xulosa**

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammosi mazkur yo‘nalishdagi nazariy va amaliy ishlarning etarlicha mavjud emasligi tufayli dolzarbliyi va yangiligi bilan farqlanadi, bu esa tadqiqot ishimizning umumnazariy, metodologik va xususiy metodik darajalarda ko‘p qirrali ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot muammosi doirasida «kompetentlik» va «pedagog kasbiy kompetentligi» tushunchalarining mazmuni takomillashtirildi, bu bizga « Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi» mohiyatini tushunishni aniqlashtirishga yaratildi. Tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi – nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar, shaxs sifatlari va ijtimoiy tajriba asosida shakllantirilgan murakkab hosila; bolalarning ijtimoiy imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan turli kasbiy vazifalar – diagnostik, metodik, psixologik, korreksion, ijtimoiy va boshqalarni hal etishning muayyan qobiliyati ekanligini aniqlandi. «Ijtimoiy kompetentlik» va «ijtimoiy-pedagogik kompetentlik» tushunchalarining tahliliga asoslanib, biz « tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligi» tushunchasining mohiyatini ochib berdik. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini uning shaxsining integrativ sifati kabi tadqiq etishda, tarbiyachilarining faoliyatining ijtimoiy yo‘naliganligini tavsiflovchi sifatlarni ajratildi: tarbiyachi korreksion-pedagogik faoliyati jarayonining ahamiyati va ijtimoiy ahamiyatini anglash; mos ijtimoiy fikrlash va xulq, kutilmagan hayotiy vaziyatlarda psixologik barqarorlik, pedagog tarbiyachining o‘zi va u ishlaydigan bolalarga taalluqli nostandart qarorlar qabul qilishda javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati. Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik mazmunida to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentlar ajratilgan: ijtimoiy-shaxsiy, kognitiv, kasbiy-faoliyatli va analitik-refleksiv. Mazkur komponentlarni biz tarbiyachilarining o‘z kasbiy faoliyatlarini har tomonlama bilishlarini aks ettiruvchi o‘ziga xos model sifatida qaraldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz>.
1. 2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va YUNESKO hamkorligida. (2018) I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B.

2. 3. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.
3. Karimov I.A. (2001) Vatan ravnaqi uchun harbirimiz mas'ulmiz. 9-jild. T.: «O'zbekiston»,165-bet. <http://www.ziyouz.com>.
4. 10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "Maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi
6. 12. "Ilq qadam" Davlat o'quv dasturi
7. 6. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. "Science and Education" Scientific Journal. 350-bet.
8. Kilichova M., Hamrayeva E. (2021) Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).Impact factor SJIF-7.696/ April, 4, P.668
9. Fazilova D.X (2021) Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar modulidan o,,quv–uslubiy majmua. Jizzax, 2021, 61-bet.
- 10.9. Qilichova M. X. (2021) Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. //XXI asr ta'lif tizimida innovatsion va integratsion yondoshuvlar mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. Jizzax, 633-bet.
11. <https://countryometers.info/ru/> Istorya naseleniya Uzbekistana (1951 – 2021g); Istorya naseleniya Yaponii (1951 – 2021g); Istorya naseleniya SSHA (1951 – 2021g); Istorya naseleniya Kazaxstana (1951 – 2021g); Istorya naseleniya Tadjikistana (1951 – 2021g). PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.
12. Abdurahimova D.A. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdag'i bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ... avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 74 b. (B.31)
13. Saipova Tozagul Risboy qizi "Bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari" PEDAGOG respiblika ilmiy jurnali 6 –tom 6–son/2023-yil /15 – iyun [www.bestpublication.org577](http://www.bestpublication.org577)
14. Abidova Nilufar Zakirovna, Saipova Tozagul Risboy qizi "Bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari" "Journal of Education, Ethics and Value" (JEEV) respiblika ilmiy jurnali Vol.3 No 01(2024) 187-193
15. A'zamova M.N. Maktabgacha ta'limgachaga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. –Toshkent, 2020. – 45 b. (B.18)

- 16.Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktabgacha ta'limgacha yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // —Pedagogs|| international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.
- 17.Gulhayo Umarova Murodiljanovna,Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz.Kichik maktabgacha ta'limgacha yoshidagio'qishga bo'lgan munosabati//Journal of integratededucation and research.VOLUME2 ,ISSUE 1January 2023.pp 150-154.
- 18.17. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lim sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
- 19.18. Xolto'rayeva, S. X. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NIMA KATBGACHA TA'LIMGACHA TA'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCHKOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 871-872.